



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



2022- yil yanvar-noyabr

2022- yil yanvar-noyabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-noyabriga, Farg'ona viloyatida jami 7 395,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 110,4 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 111,1 % oshgan (392 birlik).



Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,4 foizga oshgan (203 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 132,1 foizga oshgan (119 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 32,3 foiz ulushni va 105,9 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi (70 birlik).



**Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan
shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumotlar, birlik**


	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.12.2021- y.	01.12.2022- y.	
Farg'ona viloyati	3520	3912	111,1
Farg'ona sh.	946	1087	114,9
Qo'qon sh.	341	368	107,9
Quvasoy sh.	127	138	108,7
Marg'ilon sh.	333	325	97,6
Oltiariq	116	145	125,0
Qo'shtepa	100	115	115,0
Bag'dod	159	179	112,6
Buvayda	133	137	103,0
Beshariq	94	99	105,3
Quva	141	163	115,6
Uchko'prik	196	216	110,2
Rishton	88	105	119,3
So'x	79	90	113,9
Toshloq	134	146	109,0
O'zbekiston	97	106	109,3
Farg'ona	120	144	120,0
Dang'ara	137	151	110,2
Furqat	82	90	109,8
Yozyovon	97	108	111,3

**2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar-noyabr oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 072,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 139,0 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 3,1 % punktga ko'payib, 14,5 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-noyabr oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 33,9 %i yoki 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 91,2 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 29,0 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 245,3 % oʼsish surʼati) va Dangʼara tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 12,7 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 m. oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-noyabr oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 64,3 %i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga ko‘rsatkichiga nisbatan 2,5 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etgan holda 4 757,6 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

66,8
2021- yil
yanvar-noyabr

64,3
2022- yil
yanvar-noyabr



Maʼlumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg’ona shahri (1 454,8 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 108,0 %), Marg’ilon shahri (654,0 mlrd. so‘m yoki 130,6 %), Qo‘qon shahri (325,1 mlrd. so‘m yoki 98,2 %) va Bag’dod tumani (258,0 mlrd. so‘m yoki 82,1 %)ga to‘g‘ri keldi.


2022- yil yanvar-noyabr oylaridagi
Farg’ona viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlaringning umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 21,2 %ni tashkil etdi yoki 1 565,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 110,3 %ni tashkil etdi.



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 385,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 6 010,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,2 % va 94,8 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-noyabr oylaridagi
Farg'onaga viloyatida qurilish ishlari

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta
qurollantirish ishlari ulushi**

2022- yil yanvar-noyabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 72,6 %i yoki 5 367,1 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 870,4 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 16,2 %ni tashkil etdi.




Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 439,0 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 26,8 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	7395,6	110,4	5 367,1
Farg'ona sh.	2045,5	114,8	1495,9
Qo'qon sh.	546,7	109,9	442,6
Quvasoy sh.	212,2	106,1	165
Marg'ilon sh.	1070,1	105,8	832,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	300,6	127,9	172,1
Qo'shtega	337,6	129,8	218,6
Bag'dod	357,0	100,1	200,7
Buvayda	255,5	142,5	157,0
Beshariq	181,7	133,7	126,8
Quva	178,8	86,0	146,8
Uchko'prik	230,8	101,1	167,5
Rishton	114,7	98,5	83,8
So'x	183,7	125,0	135,7
Toshloq	311,2	115,5	201,3
O'zbekiston	177,0	94,6	160,2
Farg'ona	234,8	94,2	117,5
Dang'ara	308,0	138,5	274,1
Furqat	134,1	67,1	108,2
Yozyovon	215,6	100,2	160,8

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 13,3 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamayib, 58,9 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'payib, 27,8 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da



2021- yil
yanvar-noyabr

2022- yil
yanvar- noyabr


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,3 %ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,9 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 77,7 % (2,5 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektoring ulushi 2,0 %ni tashkil etdi (1,4 % punktga ko'paydi).




Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari



2021- yil yanvar-noyabr




Norasmiy sektor

2022- yil yanvar-noyabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi va 9,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 90,9 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi.



2022- yil yanvar-noyabr oylaridagi
Farg'onada viloyatida qurilish ishlari



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel.: 73 241-98-42